

NUTQNING ASOSIY FONETIK BIRLIKLARI

Ro'ziyeva Nigina San'at qizi*Shahrisabz davlat pedagogika instituti**Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim**Yo'nalishi 1-24-guruh talabasi*

Anatatsiya: Ushbu maqolada nutqning fonetik bo'linishi haqida so'z yuritiladi. Ya'ni fonetikaning asosiy qismlar: fraza, takt, so'z, bo'g'in, tovush kabilar haqida qisqacha bayon etiladi. Shuningdek, bo'g'inning turlari va ahamiyati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: fonetika, fraza, fonetik so'z, takt, bo'g'in, tovush, nutq madaniyati, vokal, konsonant.

Abstract: This article deals with the phonetic division of speech. That is, the main parts of phonetics: phrase, tact, word, syllable, sound, etc. are briefly explained. Also, the types and importance of the joint are studied.

Key words: phonetics, phrase, phonetic word, tact, syllable, sound, speech culture, consonant, vocal.

Аннотация: Данная статья посвящена фонетическому разделению речи. То есть кратко описываются основные части фонетики: фраза, такт, слово, слог, звук и т.д. Также изучаются виды и значение сустава.

Ключевые слова: фонетика, словосочетание, фонетическое слово, такт, слог, звук, культура речи, восал, согласный.

Muloqot ikki shaklda olib boriladi: og'zaki va yozma. Yozma shakl nisbatan keying hodisadir. Og'zaki shakl esa tilning paydo bo'lishidan boshlab uning fikrni ifodalovchi va muloqot vositasi sifatidagi yashash usuli hisoblanadi. Shuning uchun til haqidagi fanni uning material tomonisiz, tovushlarsiz, og'zaki nutqning qonuniyatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Leksik hamda grammatik faktlar ham til taraqqiyotining u yoki bu davrida sodir bo'lgan uning tovush tomonidagi o'zgarishlar bilan asoslanadi va tushuntiriladi. Bundan tashqari, og'zaki nutq spetsifik tovush vositalariga ega bo'lib, ular tilda mazmunning ifodalanishi uchun bevosita aloqadordir. Bunday vositalarga fraza, takt, ohang, fonetik so'z, bo'g'in va urg'u kiradi. Tovushlar bilan birgalikda ular „tilning tovush sistemasi“ni hosil qiladi.[1]

Ikki tomonidan pauza bilan chegaralangan, tarkibida bir necha taktlar bo'lgan eng katta fonetik birlik fraza hisoblanadi. Pauza paytida so'zlovchi frazaning talaffuzi uchun zarur keyingi nafasni oladi. Bitta fraza bir nechta gaplardan tarkib topgan bo'lishi mumkin. Bir gap ham bir qancha frazalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Fraza ohang va fikriy tugallikka ega bo'lganligi uchun ko'p hollarda gapga teng keladi. Frazalar hajmi jihatidan turli xil bo'lib, ular bir, ikki, uch va undan ortiq so'zdan tashkil topishi mumkin. Masalan: *Yaxshi so'z jon ozig'i, // Yomon so'z bosh qozig'i* // Ushbu

keltirilgan misoldagi birinchi fraza to‘rtta so‘z, ikkinchi fraza ham to‘rtta so‘zdan tashkil topgan.

Takt – bu frazaning bir qismi bo‘lib, qisqa pauzalar bilan chegaralanib turadi. Takt tarkibidagi so‘z yoki so‘zlar bir bosh urg‘u (bir havo oqimi) bilan talaffuz qilinadi. Chunonchi: *Ustoz,/muallimsiz/ qolganda zamon,/Nodonlikdan qora/ bo‘lardi jahon./* Ushbu jumlada beshta takt mavjud.

Ko‘pgina tillarda barcha mustaqil so‘zlar, o‘z urg‘ulariga ega bo‘lganliklari uchun ham alohida taktlarga ajraladi. Ammo mustaqil bo‘lmagan yordamchi so‘zlar esa urg‘uga ega bo‘lmasligi sababidan o‘zlari alohida takt hosil qila olmaydi. Shuning uchun urg‘uga bo‘lgan mustaqil so‘zlardan avval yoki ulardan so‘ng joylashib, ular bilan birgalikda takt hosil qiladi. Misol uchun: *Vatan uchun/ kurashmoq/ kerak/.*

Fonetik so‘z o‘z urg‘usiga ega bo‘lgan so‘z yoki bir urg‘uga birlashadigan (bir urg‘u bilan talaffuz etiladigan), ikki va undan ortiq so‘z shaklidir. Takt tarkibidagi fonetik so‘zlar soni undagi so‘zlarning umumiy miqdori bilan emas, urg‘uli so‘zlar miqdori bilan belgilanadi, ya‘ni takt ichida urg‘uli so‘z qancha bo‘lsa, fonetik so‘z ham shuncha bo‘ladi: *Dashtda/ odam aqli shoshadigan/ buyuk ishlar / qilinadi// (Y. Shamsharov).* Bu fraza tarkibida to‘rtta takt bo‘lib, birinchi taktda bitta, ikkinchi taktda uchta, uchinchi taktda ikkita, to‘rtinchi taktda esa bitta fonetik so‘z soniga teng. Bir tushunchani ifodalaydigan qo‘shma so‘zlar ham tarkibidagi so‘zlarning umumiy miqdoridan qat‘i nazar, bir fonetik so‘z sanaladi: *Qo‘pol va dag‘al barmoqlar torlarni shunday chertar ediki, oddiygina qildan taralayotgan bu ohang diliarini rom qilib olgandi. (To‘lqin)* Fraza tarkibidagi rom qilib olgandi bitta fonetik so‘z deb qaraladi.[2]

Bo‘g‘in bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar yig‘indisi. Har bitta bo‘g‘in alohida zarb bilan aytiladi. Faqatgina unli tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi. So‘z tarkibida qacha unli tovush bo‘lsa, so‘z shuncha bo‘g‘inga ajraladi. Masalan, amaliy so‘zida uchta bo‘g‘in bor: a-ma-liy. Birinchi bo‘g‘in bir tovushdan, ikkinchi bo‘g‘in ikki tovushdan va uchinchi bo‘g‘in uch tovushdan iborat. Demakki, bo‘g‘inlar bir tovushli, ikki tovushli va ko‘p tovushli bo‘lishi mumkin. Odatda bo‘g‘inning boshlanishida tovush past chiqib, keyin ko‘tariladi, bo‘g‘in oxiriga borib yana pasayadi. Bu holatni bir necha tovushli bo‘g‘inlarda yaqqol kuzatish mumkin.

Bo‘g‘ilar qanday tovush bilan boshlanib qanday tovush bilan tugashiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi.

Tovush bilan boshlanishiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1) berkitilgan bo‘g‘in undosh

tovush bilan boshlanadi: ma-ho-rat, mas-la-hat, han-da-lak.

2) berkitilmagan bo‘g‘in unli tovush bilan boshlanadi: e-kin, o-mad, or-zu, o-so-yish-ta.

Bo‘g‘inlar qanday tovush bilan tugashiga ko‘ra 2 turda bo‘ladi.

1) ochiq

bo‘g‘in bir tovushli yoki oxiri unli tovush bilan tugagan bo‘g‘in: pi-yo-la, de-mo-kra-ti-ya, Ja-mi-la, do-mi-no.

2) yopiq bo‘g‘in undosh

tovush bilan tugagan bo‘g‘in: mak-tub, maz-lum, deh-qon, meh-mon.

Bo‘g‘in katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ular quydagilar:

1. Yozuvda so‘zning satrga sig‘may qolgan qismi keying satrga bo‘g‘in ko‘chirish asosida

o'tkaziladi.

2. Barmoq

vaznida yozilgan she'rlarning misralari bo'g'in miqdorining teng bo'lishiga asoslanadi.

3. Maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchilarning savodini chiqarish dastlab so'zlarni bo'g'inlab o'qish va yozishni o'rgatishdan boshlanadi.

Bo'g'in ko'chirish qoidalar:

1. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: to'q-son, si-fat.

2. So'zning boshi yoki oxirgi bo'g'inini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

- So'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi qatrorda yolg'iz o'zi qoldirilmaydi: a-ba-diy emas, aba-diy;

- So'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: mudofa-a emas, mudo-faa;

3. O'zlashma so'zlarning bo'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

- ✓ Ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: diagramma, mono-grafiya;

- ✓ Uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: silin-drik, kon-trakt;

4. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi quyidagicha ko'chiriladi:

- Ikkita unlining orasida kelsa, birgalikda keyingi bo'g'inga o'tkaziladi: bo-shi, so-chim, si-ngil kabi;

- Unli va undoshning orasida kelsa, oldingi bo'g'inda qoladi: sing-lim, soch-da, bosh-ga;

5. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, kop xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: AQSH, BMT, 16, 1994. [3]

Nutq faoliyati jarayonida hosil bo'luvchi eng kichik, boshqa mayda bo'laklarga ajralmaydigan nutq birligi tovush sanaladi. Fonetikada fonema deb ataluvchi tushuncha ham mavjud. Bu atama so'z va uning ma'noli qismlarini shakllantirish hamda farqlashga xizmat qiluvchi eng kichik til birligii hisoblanadi. Fonemalarning tizimi o'zgarib borgani sayin ma'no ham o'zgarib boradi. Fonemalar unli tovush ham, undosh tovush ham bo'lishi mumkin. Chunonchi, dars va darz so'zlarida undosh fonemalar: z va s ma'no farqlagan bo'lsa, mulk va milk so'zlarida unli fonemalar: i va u ma'no farqlagan. Davo va da'vo so'zlarida fonema mavjud emas, bu yerda so'zlarni tutuq belgisi farqlagan. Tutuq belgisi fonema bo'la olmaydi. Tilning fonetik sathining birligi fonema bo'lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan shakli tovush sanaladi. Demak, fonema til birligi bo'lib, umumiylik, imkoniyat, mohiyat kabi xususiyatlarga ega. Tovushning esa nutq birligi sifatida xususiylik, voqelik, hodisa kabi xususiyatlari mavjud.

Tovushlar asosan 2 asosiy turga bo'linadi:

❖ Ovozli tovushlar (vokal) - a, e, i, o, u, o'. (V bilan belgilanadi).

❖ Ovozsiz tovushlar (konsonant)- b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, y, x, z, sh, ch, ng. (C bilan belgilanadi).

Nutqning fonetik bo‘linishi tilshunooslik va lingvistika sohasida muhim ahamiyatga ega. U nutqning tuzilishini va tovushlarning qanday ishlashini tushunishga yordam beradi. Bu mavzu bo‘yicha chuqur o‘rganish, nutq va uning funksiyalarini yaxshiroq anglashga imkon beradi. Fonetikadagi birliklar, ya‘ni yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar va intonatsiya kabi tushunchalar haqida ko‘proq bilimga ega bo‘lish nutq madaniyatini shakllantiradi. Nutq madaniyati madaniyatli kishilarning ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutq madaniyati erkin, ravon, adabiy til qoidalariga amal qilgan holda fikr bayon qilishdir. Nutqni yaxshilash har bir shaxsning o‘z burchi. Shu sababdan so‘z shakllaridan ishlatishda, jummalarni tuzishda xatò qilmaslik uchun nutqimizga ko‘proq e‘tibor qaratishimiz lozim. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo‘lib hayotimizning barcha jabhasi bilan bog‘liq. Jamiyatimiz vakillarining bu borada ilmiy salohiyati oshgani sari nutqi ham jilolanib, sayqallanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.NamDU-ARM-12868-Ozbek_tili_fonetikasi. [1]
- 2.M.Hamroev D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldasheva:Ona tili . Toshkent-2008 [2]
- 3.Nargiza Erkaboyeva “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami” “Yosh kuch” Toshkent-2021[3]